

BOYONDURLAR: TARIXI VA ETIMOLOGIYASI

Jumayev G‘ayratjon Ismatullo o‘g‘li

Tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turkiy-o‘g‘uz qabilalardan yirigi boyondurlarning tarixi, ularning kelib chiqishi, etnogenezi va ildizlarini tahlil etdik. Shuningdek, maqolada boyondurlar yashagan hududlar, davlatlar, ular bilan bog‘liq toponimlari hamda etnotoponimlar haqida ham so‘z yuritdik.

Kalit so‘zlar: Turkmanlar, Boyondur, Uzun Hasan, go‘khan, chandir “chovdur”, Oltoy, Oq qo‘yunlilar, Qabila.

BAYANDURS: HISTORY AND ETYMOLOGY

Jumayev Gayratjon Ismatullo ugli

Ph.D. student

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

ABSTRACT

We have analyzed the ethnogenesis, history, and origins of Bayondurs from Turkic-Oghuz tribes in this article. In the essay, we talked about the toponyms of the regions, countries, and ethno-toponyms related to them.

Keywords: Turkmen, Boyondur, Uzun Hasan, gokhan, chandir "chowdur", Altai, Kimek, Ak Koyunlu. Tribe.

БАЯНДУРСЫ: ИСТОРИЯ И ЭТИМОЛОГИЯ

Жумаев Гайратжон Исматулло ўғли

Базовый докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

АННОТАЦИЯ

В данной статье мы проанализировали этногенез, историю и происхождение байондров от тюрко-огузских племен. В очерке мы рассказали о топонимах регионов, стран и связанных с ними этнотопонимах.

Ключевые слова. Туркмен, Боёндур, Узун Хасан, гоклан, чандыр «чоудур», Алтай, Кимек, Ак Коюнлу. Племя.

Boyondurlar – o‘g‘uz turklari toifalaridan biri bo‘lganlar. O‘g‘uz qabila birlashmalarining nomlari Mahmud Qoshg‘ariy, Rashiduddin Fazlulloh, Ali Yazichi o‘g‘li va Abulg‘izi Bahodirxon tomonidan qayd etilgan.

Boyondurlar – turkmanlarning yirik qabilalaridan biri hisoblanib, tarixda davlat tuzgan, o‘zining davlatchilik an’analari bilan turkiy xalqlar etnik tarkibiga kirgan muhim etnoslardan biridir. Hozirgi vaqtida boyondurlar turkman etnografik guruhlarining: go‘khan va chandir “chovdur” guruhi tarkibiga kiruvchi urug‘ hisonlanadi.

Boyondur qabilasi dastlab, imur, imi, imak, tatar, qipchoq, lanikoz va ajlad bilan bir qatorda kimek konfederatsiyasini tashkil etgan, yetti asosiy qabiladan biri bo‘lgan, ular keyinchalik o‘g‘uz turklariga qo‘shilgan. Kimek qabilalari Markaziy Osiyo cho‘llarida yashab, hozirgi Qozog‘iston hududiga ko‘chib kelgan.

Fors tarixchisi Abu Said Abdulxay Gardiziy “Zayn al-axbor” (“Xabarlar ziynati”) nomli asarida, “Boyondur”larni kimeklarning bir qismi sifatida tilga oladi. Boyondurlar kimeklar tarkibidan chiqib, bo‘linib, o‘g‘uzlarga qo‘schildilar. Parchalangandan keyin qabilaning yarmi qipchoqlar bilan birlashgan. Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘at at-turk” asarida boyondurlarni o‘g‘uzlarning bir qismi sifatida bayon etadi: “o‘g‘uzlar 22 qabila bo‘lib,... uchinchisi Boyondurlardir”. Boyondurlar rus yilnomalarida XI asr voqaelarida qipchoqlar tarkibida tasvirlangan.

Rashiduddin Fazlullohning “Jomi-at tavorix” (umumiylar tarix) asarida o‘g‘uzlarning 24 qabiladan iboratligi va boyondurlar o‘n uchunchi qabila sifatida ko‘rsatilgan.

“Muntahab-i tavorixi-Saljuqiy”ga ko‘ra, Sulton Sanjarning o‘g‘uz-saljuqiy qo‘smini tarkibida bayatlar va qayilar o‘ng qanotda, chap qanotda esa boyondurlar va bijanaklar (pecheneglar) joy olganlar.

Bayandurxon nomi O‘rxon-Enasoy yodgorliklarida yuksak unvon, faxriy nom sifatida qayd etilgan.

Boyondur nomi tarixiy manbalarda ham antroponim, ham etnonim sifatida ishlataladi.

Boyondur so‘zining kelib chiqishiga kelsak, u tadqiqotlarda turlicha izohlanadi. Boyondur ismining o‘zagi qadimgi turkcha “bay” so‘zidir. Bu “boy”, “badavlat” degan ma’noni anglatadi. Bu ma’no hozir ham saqlanib qolgan. “O‘rxon Yenisey” yodgorliklarida bay so‘zi ko‘rsatilgan semantik ma’noda ham qo‘llangan. “O‘g‘uznomalar”da Boyondur “davlatli”, “ko‘p ta’minotli” “badavlat” deb izohlanadi. Tadqiqotchilar tomonidan “Boyondur” so‘zi “boy” va “baxtli va inoyatga to‘la” deb tarjima qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar mo‘g‘ulcha-oyrotcha “bayan, bayn” so‘zi “bay” so‘zining ko‘pligi bo‘lib, “boy” ma’nosini bildiradi, degan fikrlar bildirilgan. Ozarbayjonlik olim Salmon Mumtoz bay so‘zini “boy, buyuk, badavlat” ma’nolarida izohlagan. Ozarbayjonning shimoliy tumanlari shevasida “bay” so‘zi baland/katta/yirik/buyuk jonli ma’nosida saqlanib qolgan. G‘arbiy Ozarbayjon va hozirgi Armaniston hududidagi turli hududlarda yashovchi Boyondur etnotoponimiysi variantlari izlari ham bu joylar turk yerlari ekanligi qadimda boyondurlar yeri bo‘lganini isbotlaydi. Boyondur nomli etnotoponimlar, oykonimlar, toponimlar, gidronimlar hozirgi Turkiya, Ozarbayjon, Armaniston, Eron, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qozog‘iston hududlarida ko‘plab qayd etilgan. Faruk Sumer Onado‘luda Boyondur nomli 52 oykonim mavjudligini qayd etgan

Tadqiqotchilar miloddan avvalgi III asrda Xunn imperiyasining asoschisi Medexon bayan qabilasini boshqargan va G‘arbiy Mo‘g‘ulistonning Oltoyida yashaydigan mo‘g‘ul bayautlari (Bayat) va Oyratlarning bir qismi bo‘lib, kundalik hayotda sezilarli ta’sirini o‘tkazgan, oyrat tilining derbet lajasidan foydalanadigan xalqni boyondurlar bilan tarixiy ildizlari bir deb hisoblaydilar. Boyondur va bayaut qabilalarini, boshqirdlar tarkibiga kirgan boylar qabilasi bilan ham bir deb hisoblaydilar.

Turkman tarixchisi O. Gundo‘g‘diyev xunlarning bardor qabilasini boyondur qabilasi bilan birlashtiradi. Boyondur qabilasi IX-XI asrlarda hozirgi Qozog‘iston va Janubiy Sibir hududida joylashgan Qimak xoqonligining aholisi tarkibida ushbu o‘rtalasri turkiy davlatida yashagan yirik o‘g‘uz qabilalaridan biri bo‘lgan. Rus va sovet tarixchisi va sharqshunosi, akademik V.V.Bartold XI-XIII asrlarda Sharqiy Yevropa cho‘llarida yashagan turkiy berendey qabilasini boyondir qabilasiga tenglashtiradi. Boyondur qabilasi Sharqiy Anadolu va hozirgi G‘arbiy Eron hududida XIV asrda davlat tashkil etgan, yirik turkman qabila ittifoqi Oq qo‘yunlilarning boshida ham turgan.




Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti at-turk" asarida keltirilgan Boyondurlar tamg'asi

Mahmud Qoshg'ariyga ko'ra lochinni ifodalovchi boyondurlar tamg'asi.

"O'g'uznama" dostonida O'g'uz xoqonning Ko'k xon ismli o'g'lining to'rt o'g'lidan uchinchisining nomi Boyondurxon sifatida "Uch o'q" guruhida beriladi.

"Qo'rqt ota kitobi" dostonida Boyondurxon O'g'uz elining xoqoni sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, dostonda Boyondir daryosi, Boyondurlu, Bayandir manzil nomlari ham bor.

Oq qo'yunli qabila birlashmalarida bayandur qabilasining hukmron rol o'ynashi va Oq qo'yunli hukmdorlarining shu qabiladan chiqqanligi bilan bog'liq. Oq qo'yunlilarning sultonlari o'zlarini o'g'uz turklarining afsonaviy ajdodi O'g'uz xoqonning nabirasi bo'lgan Bayandirxonidan kelib chiqqanliklarini da'vo qilganlar.



Ali Yazichi o'g'lining "Saljuqnama" asarida keltirilgan boyondur qabilasining tamg'asi.

1470-yilda Uzun Hasan o'sha paytdagi Amasiya hokimi shahzoda Boyazidga maktubida: "O'g'uz eli" tarkibiga kirgan va avvallari Mang'ishloqda yashagan boshqa

qabilalar qatori Bayandur va Bayat qabilalarining odamlari Xorazm va Turkiston kelib, uning saroyida xizmat qilganini yozgan. Boyondur qabilasining tamg‘asini ham o‘z davlatining timsoliga aylantirgan. Shu sababli Boyondur tamg‘asi Oqqo‘yunlu tangalari, ularning rasmiy hujjatlari, yozuvlari va bayroqlarida uchraydi.



(Oq qo‘yunlilar istifodasidagi tamg‘a “muhr”)

Xulosa qilib aytganda, o‘tmishda Markaziy Osiyoda turkiy xalqlar tashkil qilgan davlatlar tarkibida yashab, ushbu davlatlar aholisining yirik komponenti bo‘lgan boyondur qabilasi, keyingi davrlardan ajralib, g‘arbda Saljuqiylar imperiyasi tarkibida yashadilar. XIV-XV asrlarda boyondur qabila ittifoqi yirik davlatga ham asos soldi. Hozir ham boyondurlar Turkiya, Ozarbayjon, Turkmanistonning asosiy aholisi, shuningdek, Eron, Afg‘oniston, O‘zbekiston va Qozog‘istonning aholisi tarkibida muhim o‘ringa egadir.

Kelajakda boyondurlarning boy tarixi va merosiga oid yana ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilishga ishonchimiz komil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Agajanov, S. G. (1992). “The States of the Oghuz, the Kimek and the Kipchak” History of Civilizations of Central Asia, Volume IV: The Age of Achievement AD 750 to the End of the Fifteenth Century. Motilal Banarsidass. pp. 61–76. ISBN 978-81-208-1595-7.
2. Bosworth, C. Edmund (15 May 2017). The Turks in the Early Islamic World. Taylor & Francis. pp. 192–. ISBN 978-1-351-88087-9.
3. Faruk Sümer, "Akkoyunlular", Diyanet Vakfi İslam Ansiklopedisi s. 270.
4. Çetin Varlık, "Akkoyunlular", VIII, İstanbul, 1988, s. 408.
5. J. E. Woods, 300 Yıllık Türk İmparatorluğu Akkoyunlular, Aşiret, Konfederasyon, İmparatorluk, çev. Sibel Özbudun, Milliyet yay., İstanbul, 1993., s.79.
6. Tihrânî, Diyârbekriyye, s. 40–43, çev. s. 39–40
7. İ. H. Uzunçarşılı, Anadolu Beylikleri, s. 189
8. I.Aka, İran’da Türkmen Hâkimiyeti, s. 26.
9. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
10. Jumayev G.I. Oq qo‘yunli etnonimining etimologiyasi. Scholar scientific journal. Volume 2, Issue 34. December. 2023.